

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## TASHHQI SAVDONING DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Sh. Q. Ashurov

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

Tashqi savdo tashqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas va muhim qismidir. Tashqi savdo - tovarlar va xizmatlarning eksport hamda importini o'z ichiga oladi. Har bir davlat eksport qilishga intiladi. Bu qarashlarga asosiy urg'u berganlar merkantilistlar hisoblanadi. Ular davlatning boyligini eksportda deb biladilar. Ularning qarashlariga ko'ra davlat eksport orqali davlat farovonligini ta'minlashning eng muhim xususiyati deb bilishgan. Bu ilk tashqi savdo orqali davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash qadamlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Eksportning importdan ustunligini davlatning iqtisodiy xavfsiz ekanligini ko'rsatib beradigan qarashlar har doim ham o'zini oqlamagan. Chunki davlatlarning resurslar bilan tekis ta'minlanganligi sababidan, ulardagi tabiiy sharoitlarning xilma-xilligidan kelib chiqib davlatlar turli xillidirlar. Shu sababli davlatlarda u yoki bu mahsulot bo'yicha boshqa davlatlarga nisbatan miqyos samarasi mavjud. Misol uchun fors ko'rfazi davlatlarining neft resurslariga, Kanadaning bug'doy mahsulotiga, Rossiyaning esa gaz resurslariga boyligi va boshqalar. Shundan kelib chiqib davlatlar import amaliyotini qachonki o'zlarida shu mahsulotni ishlab chiqarishda xarajatlarning import xarajatidan ortib ketgani amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Shu yo'l orqali mamlakat farovonligini oshirishlari mumkin. Davlatlar mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talablarini qondirishning kam xarj va sifatli bo'lishini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Lekin davlatlarning o'zaro manfaatlari kesishmaydigan holatlar ham mavjud. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra davlat strategik mahsulotlarni ishlab chiqarish importga bo'lgan bog'liklarini oldini olishlari zarur. Strategik mahsulotlarning tanqisligi davlatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga va aholi o'rtasida noroziliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan davlatlar tashqi savdoda boshqa bir davlatga bog'liq bo'lib qolishdan o'zlarini himoya qiladilar. Russkix O. I. tashqi iqtisodiy xavfsizlik - davlatlar tashqi va ichki tahdidlarga raqobatbardoshligi, tashqi iqtisodiy sohada mamlakatning farovonligini aholining yashash darajasi va sifatining o'sishi

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

orqali kafolatlaydigan faoliyatdir.<sup>1</sup> – deb ta’rif bergan. Ilmiy izlanishlarda olimlar tomonidan davlatlar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida bir qator mezonlarga e’tibor qaratadilar deb ta’kidlangan ular quyidagilardir:

- a) tashqi savdo aylanmasi tarkibida importning surunkali eksportdan yuqori bo‘lishi;
- b) mamlakat (mintaqa) ning strategik mahsulotlar importga yuqori darajada bog‘liqligi;
- c) tovarlarni olib kirish va eksport qilishda cheklovlar mavjudligi;
- d) eksport-import operatsiyalari ustidan bojxona nazoratining past darajasi;
- e) xalqaro hisob-kitoblarni rivojlantirish munosabatlari va asosiy moliyaviy oqimlarning yo‘nalishlari parametrlarini ishlab chiqilmaganligi;
- f) yuqori darajadagi tashqi qarz;
- g) milliy valyutaning konvertatsiya qilinmasligi;
- h) jahon valyuta va moliyaviy inqirozlari;
- i) strategik muhim eksport tovarlari uchun jahon narxlarining yuqori darajasi;
- j) jahon bozorida mamlakat tovarlarining raqobatbardoshligining past darajasi;
- k) defitsit xomashyo, energiya ta’minoti va oziq-ovqat resurslaridan foydalanishda raqobatning kuchayishi;
- l) iqtisodiyotni rivojlantirishning texnologik uslublarini rivojlantirishning ortda qolishi.

Yuqoridagi mezonlarning ta’minlanishi davlatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi ustuvor vazifalardir. Ushbu mezonlarning ta’minlanishi iqtisodiy o‘shini, aholini ish bilan bandlik ko‘rsatkichi o‘shini va jahon bozorida mamlakat mahsulotlari raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Xulosa: Fikrimizcha, tashqi savdo davlatning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Davlat tomonidan tashqi savdoni rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy barqarorlik va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan davlat iqtisodiyotining ichki va tashqi xavflardan hamda tahdidlardan himoya qiladi.

<sup>1</sup> Столыпинский вестник (2020) Гетман И. Б. “ОСОБЕННОСТИ И УГРОЗЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА В СФЕРЕ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ” стр. 193-208.

